XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASH
QARORI

2022 - yil 25 - iyun VI-38-124-3-52-K/22 Paxtakor tuman hokimligi

Paxtakor tumanidagi “G`alaba” va “Dilorom” mahalla fuqarolar yig‘inlarining chegaralarini o‘zgartirish to‘g‘risida

Yurtimiz azal azaldan mahalla tarbiya o‘chog‘i hisoblanadi. Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko‘z qorachig‘idek asrab avaylashda uning o‘rni va ahamiyati beqiyos.

Mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish nafaqat ijtimoiy iqtisodiy, balki, siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta’sirchan kuch bo‘lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi “Shaharlar posyolkalar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularni nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi 48-sonli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 11 va 31-moddalariga muvofiq, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limining 2022 yil 25 maydagi 18-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 11 va 31-moddalariga muvofiq, tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limining “G`alaba” mahalla fuqarolar yig‘ini

hududidagi Uchquloch, Oyqor va Olyinsoy ko‘chalaridagi 67 ta xonadon, 57 ta oila, 234 nafar aholi, 3,0 ga yer maydonini “Dilorom” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiga o‘tkazish hamda ularning chagaralarini belgilash va o‘zgartirish kiritish to‘g‘risidagi 2022 yil 25 maydagi 18-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limining “G’alaba” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan “Uchquloch” ko‘chasidan ikki qavatli 3 ta uy, 48 ta xonadon, 168 nafar aholi, “Oyqor” ko‘chasidan 15 ta yakka tartibdagi uylar 48 nafar aholi va “Oltinsoy” ko‘chasidan 4 ta yakka tartibdagi uylar, 18 nafar aholini tumandagi “Dilorom” mahalla fuqarolar yig‘iniga yaqin joyda joylashganligini hisobga olib, ushbu ko‘chalarni “Dilorom” mahalla fuqarolar yig‘iniga qo‘shib, “Dilorom” mahalla fuqarolar yig‘inida 923 ta xonadon, 927 ta oila, 4845 nafar aholi tashkil etish taklifi maqullansin.

3. Geografik obyektlarga nom berish va ularni nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi, mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, moliya bo‘limi, adliya bo‘limi boshliqlariga, o‘zgartirish kiritilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha tegishli hujjatlarni “Geografik obyektlarga nom berish va ularni nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha toponomik viloyat komissiyasi”ga taqdim etish vazifasi yuklatilsin.

4. Paxtakor tumani qurilish bo‘limi, obodonlashtirish boshqarmasi, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi, moliya bo‘limi, statistika bo‘limi, aholi bandligiga ko‘maklashish markazi, kadastr agentligi tuman bo‘limi rahbarlariga bir oy muddatda chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inlarini meyoriy hujjatlarini belgilangan tartibda o‘zgartirish vazifasi topshirilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Axmedov)ga tuman hududidagi chegara hududlari o‘zgargan mahalla fuqarolar yig‘inlarida yashovchi fuqarolarni ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Qurbonov) va “Paxtakor hayoti” gazetasi (M.To‘xtasheva)larga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalari orqali yoritish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i A.Salomov zimmalariga yuklansin.

Халқ депутатлари Пахтакор тумани Кенгаши раиси **А.Ашуров**